



JANNAT ESHIGI ONALAR OYOG'I OSTIDA

Omonturdiyeva Durdona Salohiddin qizi¹

¹Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo'jaligini Mexanizatsiyalash Muhandislari Instituti „Milliy Tadqiqot Universiteti“ Qishloq Xojaligini Mexanizatsiyalash fakulteti 2-bosqich talabasi

Salomova Diyora Vahob qizi²

²Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo'jaligini Mexanizatsiyalash Muhandislari Instituti "Milliy Tadqiqot Universiteti"

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7294080>

Annotatsiya: Onalarimizni ulug'lovchi, ularni kim ekanligini anglovchi, onalarimiz haqiqatdan eng ulug' zot ekanligini yana bir bor takrorlovchi maqoladir.

Kalit so'zlar: Jannat, mo'tabar, ulug', mehribon, jonkuyar, fidoyi, bebaho.

Donolar so'zi bilan aytganda, erkaklar millatning bugungi, ayollar esa uning ertasidir. Inson doimo ertangi kunga umid, ishonch bilan yashaydi. Ayol inson ma'naviyatining oltin xazinasi. Kelajak umidlarini ayollar bag'rida, qalbida ulug'laydi. Shu sababli uni yaratuvchi ayol ham deyiladi. Har bir oilaning tinch-totuv, barqaror, xotirjam bo'lishi, farzandlarning sog'lom va barkamol bo'lishi, oilada sog'lom muhit, sog'lom turmush tarzining mavjudligi har jihatdan bir inson zimmasiga tushadi. Mana shunday mas'uliyatli va sharaflil vazifani chin dildan, hech olimay boshini mag'rur ko'tarib hayot qiyinchiliklariga o'zida kuch topib, atrofdagilarga madadkor inson bu – ayol, ya'ni mo'tabar ona.

Ayol! Bu so'z zaminida olam-olam ma'no mujassam. Uni qanchalar ta'rif qilsak, shunchalar qalbimiz yayraydi. Ne ne shoirlar madhini kuylab she'rlar yozgan. Buyuk allomalar qalbidagi eng javohir so'zlar bilan uning ta'rifini keltirganlar. Bu dunyo go'zalligini hayot falsafasini va ma'no ma'rifatini va ayol siymosining uning fidoi qalb, vafo va sadoqatida ko'ramiz, his etamiz.

Ona! Naqadar buyuk zot. Faqat uning farzand uchun kechalari bedor o'tkazgan, farzand kamoli uchun yelib-yugurgan, oilaning tinch yashashi uchun har ishga tayyor, atrofdagilarga beminnat mehr bergan betakror zot.

Ona! Hayot saboqlarini beruvchi, jonkuyar mehribon zot. Katta-yu kichik doimo birday yordam bera oladigan, doimo to'g'ri yo'l ko'rsataoladigan murabbiy kabi. Oilada hammani ko'ngliga yo'l topadigan mehribon ona. Yurt koriga yaraydigan farzandlarni kamolga yetkazayotgan volida aziz insonni qo'llab-quvvatlaydigan sevimli rafiqqa. O'zi ona bo'lsada, bir daqiqa ham farzand ekanligini unutmay doimo ota-ona xizmatiga shay





turgan inson balki uning buyukligi ham shundadur, balki shuning uchun ham barchamiz uning oldida ta'zimdadir.

Jonim og'riganda sezardi onam,
Dardimga darmon bo'lardi onam.
Jonim bolam joning og'rimsin deb
Duolar qilardi mehribon onam!
Dardimni onamdek sezolmas hech kim
Borini onamdek berolmas hech kim.
Hatto beminnat edi bergan mehri ham,
Duolar qilardi mehribon onam!
Onadek mehribon yo'qdur dunyoda,
Onam bilan hayotim edi ziyoda.
Yolg'on dunyo ekan yolg'on ro'yoda
Duolar qilardi mehribon onam...

Ona haqida she'r yozmagan, ashula kuylammagan qo'shiqchi, shora-yu shoir bo'lmasa kerak. Boisi, ayol eng avvalo ona. Ona jamiyat uchun, Vatan uchun barkamol farzandlarni tarbiyalab, voyaga yetkazib beradi. Farzandni chin dildan duo qiladigan, baxt-u saodatini so'raydigan, bolasini barcha tashlab ketsa hamki, uni ham yomon, ham yaxshi kunida qo'llab-quvvatlaydigan inson bu – farishta sifat onajonlarimizdir. Haqiqatdan ham, ona buyuk zot. Men ularni yerdagi farishtalarga qiyoslagim keladi. Prezidentimiz Islom Karimov Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqida ta'kidlagandek, "Ayollarga sharqona ehtirom ko'rsatish – biz uchun ota-bobolarimizdan qolgan ibratli meros bo'lib, biz bunday an'analarga sodiq bo'lib yashashimiz kerak. Biz mustaqillikka erishganimizdan so'ng, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, birinchi navbatda, oila, onalik va bolalikni himoya qilish masalasini o'zimiz uchun eng muhim, ustivor vazifa sifatida belgilab oldik. Bu borada zarur huquqiy – me'yoriy bazani takomillashtirish, aholining hayot darajasi va sifatini oshirish borasida qanday ulkan ishlar amalga oshirganmiz barchamizga yaxshi ma'lum, albatta" deb ta'kidlab o'tganlar.

Onasiz hayot, albatta, qorong'u va ma'yus bo'ladi. Shuning uchun onalarimizga yordam berish va ularni qo'llab-quvvatlash bizning burchimizdir. Buning muhim usullaridan biri dastavval bu uy ishlarida





yordam berishdir. Biz ko'proq uy ishlarini bajarishga harakat qilishimiz kerak. Bu, albatta, onalarimizga tushadigan yukni bir oz bo'lsada kamaytiradi. Onalarimizda esa o'z salomatliklari haqida qayg'urishga va dam olishga biroz bo'lsada vaqt topadi.

Onalarni qo'llab – quvvatlashning yana bir usuli – bu rahmat so'zlarni aytishdir. Ular bajaradigan eng og'ir kasbdagina zarracha ham qolishmaydi. Onaning yuragi oltindan yaratilgan bo'lsa ajabmas. Bir necha oddiy so'zlar ularning qalbini baxtga to'ldiradi. Onalar farzandlari uchun eng yaqin do'st bo'lishadi. Albatta, bunday oqibatni boshqa hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Hatto otalar ham aloqa o'rnatolmaydilar. Bu rishta bolalikdan boshlanadi. Shunisi e'tiborliki, ona bolasi gap – so'zsiz tushinishi ham mumkin. Ona har bir inson hayotidagi qimmatbaho toshdir. U bola uchun baxtning asosiy manbai. O'z farzandini chin qalbdan yaxshi ko'rmaydigan onani toppish, ehtimol, imkonsiz vazifadir. Ma'lumki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yurtboshimiz har bir yilga o'ziga xos nom berish an'anasiga asos soldi. Bu tadbir 1991-yildan boshlab alohida ijtimoiy-iqtisodiy davlat dasturi bilan to'ldirila boshlangani ham sir emas. Hozirgacha nomlangan yillar oralig'ida ziz, mehribon, jonkuyar onalarimizga ham alohida e'tibor qaratildi. Onalarimizga alohida ehtirom ko'rsatishimiz, ularni asrab-avaylashimiz shart deb bilaman. „Bolani dunyoga keltirish ayol uchun o'zidan voz kechishini anglatadi. Ayol o'zida-o'zidan voz kechishi mahoratini tarbiyalagani holda uni hayotning boshqa jarayonlarida qo'llay ola biladi“, deydi. Bu – juda katta ma'naviy qudrat, ruhiy iroda. Har bir davrning o'z yuki, mas'uliyati, javobgarligi bo'ladi. Bugunning onasi dunyo qalqib turgan bir paytda yeti milliarddan ortiq inson bilan birga ezgulik va yovuzlik, muhabbat va nafrat, sadoqat va xiyonat oralig'ida yashamoqda. Yer shari ana shu bir-biriga zid, bir-birini mavh etishga tayyor turgan tuyg'ularning mahobatiga aylangan. Bunday chuqur dramatism holatida onaning kechinmalarini, iztiroblarini his qilish qiyin emas. Zotan, ona ezgulik, yaxshilik, muruvvatlik, muhabbat va boshqa ko'plab qator fazilatlar volidasidir. Uning beqiyos timsolini ta'riflashga so'z ham ojizlik qiladi deb o'ylayman. Chunki uning qalbi shunchalar chek-chegarasizdir, uni oldida so'z ham eng kuchli inson ham ojiz qolad.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.askinfo.uz
2. www.saviya.uz

